

# Yashil

## IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

6

2023



- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti

- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati



# Yashil IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Qo'ng'irotboy Avezimbetovich

Bosh muharrir o'rincbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Elektron nashr. 424 sahifa, 30-iyun, 2023-yil.

Muharrir:

Qurbanov Sherzod Ismatillayevich

## Tahrir hay'ati:

Rae Kvon Chung, Janubiy Korea, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston fanlar akademiyasi akademigi

Abdurahmonov Qalandar Xodjayevich, O'zbekiston fanlar akademiyasi akademigi

Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyatni rahbari

Toshkulov Abduqodir Hamidovich, i.f.d., prof., O'zbekiston Respublikasi Prezidentining yoshlar, fan, ta'lif, sog'liqni saqlash, madaniyat va sport masalalari bo'yicha maslahatchisi o'rincbosari

Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, i.f.d., O'zR Oliy ta'lif, fan va innovatsiyalar vaziri o'rincbosari

Sharipov Qo'ng'irotboy Avazimbetovich, t.f.d., prof., TDIU rektori

Oblamuradov Narzulla Naimovich, i.f.n., dots., O'zR Tabiat resurslari vaziri o'rincbosari

Djumaniyazov Maqsud Allanazarovich, Qoraqalpog'iston Resp. Tabiat resurslari qo'mitasi raisi

Axmedov Durbek Kudratillayevich, i.f.d., prof., O'zR Oliy Majlis qonunchilik palatasi deputati

Utayev Uktam Choriyevich, O'zR Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rincbosari

Ochilov Farxod, O'zR Bosh prokuraturasi iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti bo'limi boshlig'i

Eshov Mansur Po'latovich, i.f.d., prof., TDIU Akademik faoliyat bo'yicha prorektori

Xudoqulov Sadirdin Karimovich, i.f.d., prof., TDIU YomMMIB birinchi prorektori

Abdurahmanova Gulnora Qalandarovna, i.f.d., prof., TDIU Ilmiy ishlari va innovatsiyalar bo'yicha prorektori

Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, i.f.d., prof., "O'IRIAM" ilmiy tadqiqot markazi direktori – prorektor

Yuldashev Maqsud Abdullayevich, p.f.d., prof., TDIU Moliya-iqtisod ishlari bo'yicha prorektori

Karimov Norboy G'aniyevich, i.f.d., prof., TDIU huzuridagi PKQTMO tarmoq markazi direktori

Hakimov Nazar Hakimovich, f.f.d. TDIU profesor

Yuldashev Mutallib Ibragimovich, i.f.d., TMI professori

Samadov Asqarjon Nishonovich, i.f.n., TDIU Marketing kafedrasи professori

Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, t.f.d., Rossiya xalqlar do'stligi universiteti professori

Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, i.f.d., prof., Xalqaro "Nordik" universiteti rektori

Aliyev Bekdavlat Aliyevich, f.f.d., TDIU professori

Po'latov Baxtiyor Alimovich, t.f.d., prof., Atrof-muhit va tabiatni muhofaza qilish texnologiyalari ilmiy-tadqiqot instituti

Axmedov Javohir Jamolovich, i.f.f.d., "El-yurt umidi" jamg'armasi ijrochi direktori o'rincbosari

Isakov Janabay Yakubbayevich, i.f.d., TDIU professori

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, t.f.f.d., Toshkent arxitektura-qurilish universiteti katta o'qituvchisi

Kamilova Iroda Xusniddinovna, i.f.f.d., TDIU dotsenti

Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, i.f.f.d., TDIU dotsenti

Sevil Piriyeva Karaman, PhD, Turkiya Anqara universiteti doktaranti

Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, TDIU katta o'qituvchisi

Rustamov Ilhomiddin, f.f.n., Farg'onan davlat universiteti dotsenti

## Ekspertlar kengashi:

Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, i.f.d, TDIU dotsenti

Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, i.f.f.d, TDIU dotsenti

Imomqulov To'iqin Burxonovich, i.f.f.d, TDIU dotsenti

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,

O'zR Tabiat resurslari vazirligi,

O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

## Jurnalning ilmiyligi:

"Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lif, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining

2023-yil 1-apreldagi 336/3-soni qarori bilan ro'yxatdan o'tkazilgan.



# MUNDARIJA

Sanoat korxonalarida energiyadan foydalanish samaradorligini oshirishning asosiy yo'nalishlari .....	6
<b>Buzrukxonov Sardorxon Sarvarxon o'g'li</b> , mustaqil izlanuvchi	
Klasterlarni rivojlantirishda fermer xo'jaliklarining strategik boshqaruvi .....	11
<b>Karimova Nilufar</b> , tayanch doktarant	
Application of Information and Communication Technology to Promote Economic Development of Tourism Services in Uzbekistan .....	16
<b>Peng Xinge</b> , PhD Researcher	
O'zbekistonda qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan samarali foydalanishning asosiy yo'nalishlari.....	21
<b>Xotamov Ibodulla Sadullayevich</b> , i.f.n., professor, <b>Najmiddinov Yakhyo Fazliddin o'g'li</b> , kafedra assistenti	
Suv ta'minot korxonalarida biznes jarayonlari bo'yicha boshqaruv hisobi tizimida hisob yuritishning xususiyatlari.....	28
<b>Saidakbarov Xusniddin Abdisalomovich</b> , PhD, katta o'qituvchi	
O'zbekiston ichki oziq-ovqat tovarlari bozorini to'ldirishning o'ziga xos xususiyatlari.....	31
<b>Azlarova Munira Muhammad Amin qizi</b> , tadqiqotchi	
Assessing the Implementation of Sustainable Practices in Higher Education Institutions to Drive the Transition towards a Green Economy: A Management Perspective .....	40
<b>Kuzikulova Dilfuza</b>	
Qualitative functional development in industrial production.....	49
<b>Ziyayeva Mukhtasar Mansurdjanovna</b> , TSUE, DSc, assistant professor	
Temir yo'l transportini mahalliylashtirishni moliyalashtirish mexanizmning hozirgi holati.....	54
<b>Xamrayev Djamshid Panjiyevich</b> , mustaqil tadqiqotchi	
Enhancing Education Management for Green Development in Engineering Programs: Strategies, Challenges, and Outcomes.....	61
<b>Eshbayev Oybek</b> , Department of English Language	
Exploring the Role of Effective Management Practices in Achieving a Sustainable Green Economy.....	68
<b>Rozikov Ravshan</b> , Department of English Language	
Enhancing Vocational Competence of Future Economists through English Language Lessons in the Context of the Green Economy.....	76
<b>Kurbanova Nigina</b> , Department of English Language	
Empirical test of regional economic innovation and development along the Belt and Road .....	85
<b>Kalonov Mukhiddin Bahridinovich</b> , professor	
<b>Shao Junling</b> , PhD student, researcher	
Analysis of the Impact of Cross border Investment and International Economic Integration.....	90
<b>Zhao shenghan</b>	
Yashil iqtisodiyotni moliyalashtirishda bank moliya texnologiyalarining ahamiyati.....	96
<b>Abduraximova Dilora Karimovna</b> , PhD	
Rivojlangan mamlakatlarda bilimlar iqtisodiyoti konsepsiyasidan samarali foydalanish yo'nalishlari.....	101
<b>Xasanxonova Nodira Isametdinovna</b> , PhD	
Biznes inkubator orqali kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarini shakllantirishda "yashil logistika" tamoyillaridan foydalanish.....	107
<b>Narzullayev Shodiyor Eshpulatovich</b> , kafedra assistent	
Innovatsion faoliyatning asosi – intelektual salohiyat .....	112
<b>Kaxorova Anora Nusratovna</b> , kafedra assistenti	
Ijro hokimiyyati organlari faoliyatini baholash mezonlari tushunchasi va turlari .....	118
<b>Qahramon Usmanovich Umidullayev</b> , yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD)	
Temir yo'l transportida mahalliylashtirishni moliyalashtirishning huquqiy asoslari.....	124
<b>Xamrayev Djamshid Panjiyevich</b> , mustaqil tadqiqotchisi	
Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari bo'yicha moliyaviy hisobot: tayyorlash va avtomatlashtirish .....	129
<b>Tulayev Mirzakul Salamovich</b> , dotsent	
O'zbekistonda kichik tadbirkorlikni rivojlantirishning samarali yo'llari .....	133
<b>Sh. B. Babayev</b> , dotsent; <b>M. R. Qulmetov</b> , dotsent	
Sug'urta kompaniyalari to'lov qobiliyatini kengaytirish yo'nalishlari .....	138
<b>G'aniyev Shahriiddin Vohidovich</b> , professor, i. f. d. (DsC), <b>Qarshiyev Daniyar Eshpulatovich</b> , i. f. f. d. (PhD)	



Повышении роли цифровой трансформации банков в современном этапе развития экономики .....	144
<b>Жиянова Наргиза Эсанбоена</b> , к.э.н., проф., <b>Азимжонова Малика Шавкат қизи</b> , специалист первой категории	
To'qimachilik korxonalarida tejamkor ishlab chiqarishni tashkil etishda mehnat resurslari va ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanish samaradorligi .....	150
<b>Yaxyayeva Inobat Karimovna</b> , dotsent, PhD	
Liquidity and recent changes of government securities market in the United States, the United Kingdom and Japan.....	154
<b>Kholikov Khamidulla Vaydulla ugli</b>	
"История экономических учений" как основная дисциплина в подготовке конкурентоспособных кадров экономистов .....	160
<b>Хакимов Назар Хакимович</b> , доктор философских наук, профессор	
The importance of strategic management and strategic leadership .....	166
<b>Reyimberdiyev Baburbek Adilbek o'g'li</b>	
Exploring the Role of Higher Education in Fostering Green Economy Transition: A Systematic Analysis of Curriculum Integration and Skill Development.....	170
<b>Xasanova Zarina</b> , Department of English Language	
Inson kapitalini joriy etish tizimi va xodimlar daromadi o'rtasidagi o'zaro ta'sir tahlili.....	178
<b>M. O. Hamroqulov</b> , katta o'qituvchi	
Yetuk mutaxassis tayyorlash – kelajak uchun sarmoya.....	185
<b>Farhod Bagibekovich Xalimbetov</b>	
Analysis of new established and liquidated enterprises as a basis for jobs (On the example of Samarkand region) .....	188
<b>Saidov Nurali Rakhimovich</b>	
Basing and forecasting the priorities of introducing innovative medical services in Khorezm region. ....	193
<b>S. M. Rakhimova</b>	
Оптимизации операционной стратегии и повышение экономического потенциала хлопково-текстильных кластеров .....	197
<b>Джурабаев Отабек Джурбаевич</b> , доцент	
Soliq to'g'risidagi qonunlarni buzganlik uchun yuridik javobgarlikka tortishning huquqiy asoslari....	204
<b>Hakimov Feruz Xurshid o'g'li</b> , talaba	
Hayot sug'urtasining rivojlanishi va uning ijtimoiy hayotdagি o'rni .....	207
<b>Baratova Dinora Alisherovna</b> , katta o'qituvchisi	
Edge Computing texnologiyalari .....	213
<b>Qulmatova S.</b> , PhD, katta o'qituvchi; <b>Karimov Botir</b> , katta o'qituvchi	
Aksiyadorlik kapitalida davlat ulushini qisqartirish va xususiylashtirish holati .....	218
<b>Mamatov Bahromjon Shavkatovich</b> , PhD, dotsent	
Xususiy maktablarning ijobiy imijini shakllantirishning nazariy jihatlari.....	223
<b>Odilova Sitora Sayfitdin qizi</b> , katta o'qituvchi	
Tomorqa xo'jaliklarida oziq-ovqat mahsulotlari yetishtirish hajmining prognoz ko'rsatkichlari .....	228
<b>Saydullayeva Fotima Jozilovna</b> , assistant	
O'zbekiston sug'urta bozori rivojlanishining o'ziga xos xususiyati.....	235
<b>Xasanov Xayrulla Nasrullahovich</b>	
O'zbekiston yoshlarida volontorlik faoliyatini rivojlantirishning ijtimoiy-siyosiy va huquqiy mexanizmlari: jahon va mahalliy tajriba .....	241
<b>Qudratov Anvarmirzo Murodillayevich</b> , siyosiy fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD)	
Культурологический аспект преподавания русскоязычной литературы Казахстана в ВУЗе ....	247
<b>Оспан Айзада Бейсенқызы</b> , докторант 2 курса	
Tijorat banklarida kreditlash riskini boshqarish holati tahlili.....	251
<b>Mirzoyev Feruz Mamurjonovich</b> , mustaqil izlanuvchi	
Tijorat banklari aktivlarini diversifikatsiyalashning zamonaviy holati va tendensiyalari .....	259
<b>Abdualim Abdujabbor o'g'li Abdurazzoqov</b> , mustaqil tadqiqotchi	
Significance and prospects of using economic-mathematical models in analysis of our country's economic growth .....	267
<b>Rasulov Jamshid Shokir o'g'li</b>	
Bank daromadlilik ko'rsatkichlariga makroiqtisodiy omillar ta'siri.....	274
<b>Madraimov Xabibulla Madaminovich</b> , assistant o'qituvchi	



Xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirishning ilmiy konsepsiyalari .....	282
<b>Mamatov Mamajan Axmadjonovich</b> , i.f.n., dotsent	
Qishloq xo'jalik mahsulotlari ishlab chiqarishni rivojlantirishning makroiqtisodiy barqarorligini ta'minlash .....	288
<b>Ergashova Nargiza Boboxonovna</b> , talaba	
Budget-soliq va pul-kredit siyosatini muvofiqlashtirishning nazariy yondashuvlari .....	296
<b>Hakimjon Hakimov</b> , tadqiqotchi	
Innovatsion-brokerlik faoliyatini rivojlantirishda moliyaviy injiniringni ahamiyatini oshirish istiqbollari.....	301
<b>Saipnazarov Sherbek Shaylavbekovich</b> , dotsent	
O'zbekistonda inson kapitalini rivojlantirishda ta'lim xizmatlari bozorining ahamiyati .....	306
<b>Babadjanova Malika Ruzimovna</b> , assistent o'qituvchi	
O'zbekiston sug'urtalovchilarining moliyaviy barqarorligini ta'minlashda qayta sug'urtaning roli .....	312
<b>Kamilov Baxramjon Umardjonovich</b>	
Shaxs ma'nnaviy-axloqiy tarbiyasi hamisha muhim.....	317
<b>Bekdavlat Aliyev</b> , professor, falsafa fanlari doktori	
Jismoniy shaxslar daromadini soliqqa tortishning zamonaviy tendensiyalari .....	321
<b>O. T. Nurmatov</b> , PhD	
Milliy mahsulotning mazmuni, tarkibiy qismlari va harakat shakllarini tadqiq qilishning nazariy-uslubiy asoslari.....	327
<b>Abdullayev Suyun Artiqovich</b> , O'zbekiston jahon tillari universiteti prorektori	
O'zbekiston Respublikasidagi yirik tijorat banklari kreditlash amaliyotining ekonometrik tahlil va natijalari.....	335
<b>Kaxxarov Ulug'bek Xalmatovich</b> , mustaqil izlanuvchi	
Aksiyadorlik jamiyatlari faoliyatda ichki nazorat va auditning xususiyatlari.....	346
<b>Saidaxmedova Aida Mirzayevna</b> , katta o'qituvchi	
Yangi O'zbekistonda yog'-moy korxonalari personalini boshqarishni takomillashtirish.....	352
<b>D. A. Azlarova</b> , PhD	
The Intersection of Sustainability and Economic Development:	
Balancing Environment and Business Needs .....	360
<b>Kholikova Rukhsora Sanjarovna</b> , PhD, <b>Izzatulloev Bakhodir Ubaydullo ugli</b> , student	
Davlat-xususiy sheriklikni tashkil etishning huquqiy-institutsional mexanizmlari .....	364
<b>Zuhra Abdikarimova</b> , tayanch doktorant	
Zamonaviy portfel nazariyasi asosida samarali portfeli shakllantirish.....	370
<b>Sindarov Fazliddin Qahramonovich</b> , kafedra assistenti	
Iste'molchilarning qandolat mahsulotlariga bo'lgan talablarini raqamli platformalar orqali tadqiq qilish yo'llari .....	376
<b>To'ychiyeva Vasila Faxriddin qizi</b> , assistent	
Investitsiya muhiti va faoliyati natijalarini baholash uslublari.....	381
<b>B. K. Tuxliyev</b> , professor	
Sanoat korxonalarida resurslar salohiyatini tizimli tahlil qilish – korxonalarining iqtisodiy barqarorligini ta'minlash omili sifatida.....	386
<b>Madraximova Gulasal Ro'zimboy qizi</b> , PhD	
Mintaqada kichik biznes va xususiy tadbirkorlik rivojlanishi tahlili (Xorazm viloyati misolida).....	391
<b>Aminboy Sa'dullayev</b> , i.f.n., dotsent, <b>Dilshod Vaisov</b> , magistr, <b>Farhod Egamberganov</b> , magistr	
Xizmatlar ko'rsatish korxonalarini soliqqa tortish amaliyoti va uni takomillashtirish.....	397
<b>Pardayev Jamshid Muzaffarovich</b> , tadqiqotchi	
Asosiy kapitalga yo'naltirilgan investitsiyalar: yutuqlar, kamchiliklar va yechimlari.....	403
<b>Muxtidinova Kamola Alisherovna</b> , PhD	
Directions of attracting foreign capital and specific characteristics of the eurobond transaction.....	407
<b>Gafurov Olimjon</b> , teacher, <b>Kholmuminov Humoyun</b> , teacher, <b>Abrueva Sevinch</b> , student,	
Формирование международных систем бухгалтерского учета в условиях глобализации экономики .....	411
<b>Ф. Т. Абдувахидов</b> , доцент, <b>А. Ю. Нурмухаммедов</b> , доцент	
Qishloqda turizmni tashkil etishning mamlakatimiz taraqqiyotiga ta'siri .....	417
<b>Jo'rayeva Nargiza Abduvohidovna</b> , dotsent	
Public debt, poverty and economic growth of Uzbekistan .....	420
<b>Mirzamakhmudov Marufjan Mahamadsharif ugli</b>	



# IJRO HOKIMIYATI ORGANLARI FAOLIYATINI BAHOLASH MEZONLARI TUSHUNCHASI VA TURLARI

**Qahramon Usmanovich Umidullayev**

O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Davlat va huquq institutining katta ilmiy xodimi, yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Annotatsiya:** mazkur maqolada ijro etuvchi hokimiyat organlari faoliyati samaradorligini baholash mezonlari tushunchasi, ularning turlari va yondashuvlari yoritib berilgan. Olimlar va mutaxassislar tomonidan ushbu tushunchaga berilgan ta'riflar tahlil qilingan. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasida ijro hokimiyati organlari faoliyatini mezonlar asosida baholash borasida qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlar o'rganilib tahlil qilingan, baholash mezonlari borasida tegishli takliflar va tavsiyalar berilgan.

**Kalit so'zlar:** ijro hokimiyati organlari, mezon, baholash, normativ-huquqiy hujjatlar.

**Аннотация:** В данной статье рассматривается понятие критерииов оценки эффективности деятельности органов исполнительной власти, их виды и подходы. Определения, данные этому понятию, были проанализированы учеными и специалистами.

Также были изучены и проанализированы нормативные правовые акты, принятые в Республике Узбекистан на основе критериев оценки деятельности органов исполнительной власти, внесены соответствующие предложения и рекомендации относительно критериев оценки.

**Ключевые слова:** Органы исполнительной власти, критерии, оценка, нормативные правовые акты.

**Abstract:** This article discusses the concept of criteria for evaluating the effectiveness of the activities of executive authorities, their types and approaches. The definitions given to this concept have been analyzed by scientists and specialists. Also, the regulatory legal acts adopted in the Republic of Uzbekistan on the basis of the criteria for evaluating the activities of executive authorities were studied and analyzed, and relevant proposals and recommendations were made regarding the evaluation criteria.

**Key words:** Executive authorities, criteria, assessment, regulatory legal acts.

## KIRISH

Ijro etuvchi hokimiyat organlari faoliyatini baholash muayyan mezonlar asosida amalga oshiriladi. Baholash mezonlarini to'g'ri tanlash baholash amaliyotining eng muhim jihatlaridan biri hisoblanadi. Baholash mezonlarini aniq belgilash ushbu organlar faoliyatiga xolis va asosli baho berishga xizmat qiladi.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

"Mezon" yunoncha "kriterion" [1], rus tilida esa "kriteriya" [2] so'zi bilan ifodalanadi. Yana bir elektron lug'atda "mezon yunoncha sriteria – farqlash qobiliyati, qaror qabul qilish vositasi, o'Ichov, biror narsaning talablariga muvofiqligini baholash uchun belgi, asos, qaror qabul qilish qoidasi", – deb ko'rsatilgan [3]. Xorijiy so'zlar lug'atida mezon so'ziga "mezon – hodisalar, jarayonlar, holat va boshqalarning sifati, mazmuni o'Ichovi, ular to'g'risidagi fikrning alomati, uning son o'Ichovlari ko'rsatkichlarida o'z aksini topishi", – deb ta'rif berilgan [4, 262-b.].

Davlat boshqaruvi organlari faoliyatini baholash bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borgan A. V. Achkasovning fikriga ko'ra, "mezonlar umuman davlat boshqaruvi tizimi samaradorligini baholash uchun ishlatalishi mumkin bo'lgan xususiyatlar guruhini hamda alohida boshqaruv qarorlarini o'z ichiga oladi. Bunday baholash nafaqat davlat uchun, balki jamiyat uchun ham zarur bo'lib, bu davlat muassasalari faoliyatini kuzatish imkonini beradi" [5, 209–212-b.].

Yuqoridaqilarga asoslanib, mezon so'ziga, xususan, ijro etuvchi hokimiyat organlari faoliyatini baholash mezonlariga bir nechta ta'riflar berish mumkin.

Mezon – obyektning talablarga (o'Ichov) muvofiqligini baholash uchun asos, qaror qabul qilish vositasi.



Mezon – baholanayotgan obyektning faoliyati yoki jarayonning natijasi, uning xususiyatini aniqlash vositasi. Mezon – obyekt yoki hodisani tavsiflash uchun asos, noaniqliklarini bartaraf etish, muammoni hal qilish, soddalashtirilgan yechim orqali qo'shimcha ma'lumot olish vositasi.

Mezon – biror narsa, hodisa yoki faoliyatga baho berish, uning xususiyatlarini aniqlash, ta'riflash, tavsiflash va tasniflash vositasidir.

Ijro etuvchi hokimiyat organlari faoliyati samaradorligini baholash mezonlari tegishli normativ-huquqiy hujjalashtirilgan vazifalarini bir nechta mezonlarga aylantirish va ular asosida ushbu organlarning faoliyatiga har tomonlama va asosli baho berish vositasi hisoblanadi.

Mezonlar orqali sifat va miqdor aniqlab, belgilab olinadi. Mezonlar maqsadga muvofiqlik talablariiga javob berishi kerak. Maqsadga muvofiqlik rejalashtirilgan miqdor, sifat va natijaga erishish bilan izohlanadi.

"Muammoli vaziyatni tavsiflash uchun ishlataladigan mezonlar to'plami quyidagi talablarga javob berishi kerak:

To'liqlik – mezonlar majmuasi ko'rib chiqilayotgan muammoning barcha muhim tomonlarini, uni hal qilish sifatini va variantlarning asosiy xususiyatlarini aks ettirishi kerak;

Parchalanuvchanlik (razlojimost) – mezonlarning tarkibi muammoni tavsiflash va tahlil qilishni soddalashtirishi, variantlarning turli xususiyatlarini va muammoni hal qilish sifatining turli tomonlarini baholashga imkon berishi kerak;

Ortiqcha bo'lmasligi – mezonlar soni muammoni hal qilish uchun zarur bo'lgan minimal bo'lishi kerak, mezonlar o'z mazmuniga ko'ra bir-birini takrorlamasligi kerak;

Oshkorlik – mezonlarning mazmuni va ma'nosi, mezonlar shkalasi bo'yicha baholash matni qaror qabul qilish jarayonlari barcha ishtiroychilari tomonidan aniq tushunilishi kerak" [6].

I. N. Bartsitsning fikriga ko'ra, "davlat boshqaruvining "samaradorlik mezonlari" tushunchasi boshqaruv tizimining belgi va xususiyatlari majmuyi bo'lib, butun boshqaruvi tizimi va alohida boshqaruvi qarorlarining samaradorligi bilan baholanadi. Baholash asosini tashkil etuvchi xususiyati uning tasnifi va tavsifi yoki mezonlari orqali amalga oshiriladi. Shunday qilib, qo'yilgan maqsadlar va erishilgan natijalar asosida baholash, baholash muvofiqligi hisoblanadi" [7, 8-b.].

A. N. Savrukov va N. T. Savrukovlar baholash mezonlari ijro etuvchi hokimiyat organlarining barcha sohalarini qamrab olishi, maqsadlarga erishilganlik darajasini har tomonlama baholashi, byudjet xarajatlarini samarali boshqarish, tejamkorligini ta'minlashi, qiyosiy tahlil qilish imkoniyati mavjudligi, nomutanosibliklar va muammolarni aniqlashga imkon berishi lozim. Ularning fikriga ko'ra, ushbu metodologiyaga muvofiq quyidagi mezonlar guruhi mavjud:

- rivojlanishining ijtimoiy-iqtisodiy ko'rsatkichlari, demografik holat va sog'liqni saqlash samaradorligi;
- fuqarolarning turmush darajasi;
- moliyaviy resurslarni boshqarish samaradorligi;
- ta'llimning rivojlanish darajasi;
- fuqarolar xavfsizligini ta'minlash;
- uy-joy kommunal xizmatlarining holati;
- ijro etuvchi hokimiyat organlari faoliyatidan aholining qoniqish darajasi" [8].

A. V. Achkasovning fikriga ko'ra, "mezonlar umuman davlat boshqaruvi tizimi samaradorligini baholash uchun ishlatalishi mumkin bo'lgan xususiyat yoki xususiyatlar guruhini hamda alohida boshqaruvi qarorlarini o'z ichiga oladi. Bunday baholash nafaqat davlat uchun, balki jamiyat uchun ham zarur bo'lib, bu davlat muassasalari faoliyatini kuzatish imkonini beradi" [9, 209–212-b.].

Fikrimizga ko'ra, ijro etuvchi hokimiyat organlari faoliyatini baholash mezonlari natijadorlikka qaratilgan boshqaruv talablariiga javob berishi hamda jarayonlarning uyg'unligi va yaxlitligini ta'minlashi kerak. Ijro etuvchi hokimiyat organlari faoliyatini baholash mezonlарini tanlashda nafaqat iqtisodiy, balki mamlakatda ijtimoiy, siyosiy jarayonlarning barqarorligini ta'minlashga javob beradigan mezonlarga ham e'tibor qaratish lozim. Umuman olganda ko'pchilik davlatlarda baholash mezonlari sifatida fuqarolarning xavfsizligi, turmush darajasi, tug'ilish ko'rsatkichlari, o'ttacha umr ko'rish davomiyligi, aholining real daromadlari kabi mezonlar asosiy mezonlar sifatida qabul qilingan.

Shuningdek, ko'pchilik davlatlarda ijro etuvchi hokimiyat organlari faoliyatiga baho berish vositalaridan biri sifatida ularning faoliyati natijalaridan jamoatchilikning qoniqishini aniqlash maqsadida jamoatchilik o'ttasida o'tkazilgan so'rov natijalariga asoslanish tartibi ham joriy etilgan. Misol uchun, ta'lim, sog'liqni saqlash, xizmatlar ko'rsatish sifati va tezligidan aholining qoniqish darajasi.

Shu o'rinda Prezident Sh.M. Mirziyoyevning "Xalq davlat organlariga emas, balki davlat organlari xalqimizga xizmat qiladigan vaqt keldi. Bundan keyin joylardagi rahbarlar faoliyatiga, birinchi navbatda, ular boshqarotgan hududdagi aholidayan tushayotgan murojaatlar soni, ularning xalq ichida yurishi, mavjud muammolarning amaliy yechimiga qarab baho beriladi. Qisqa qilib aytganda, rahbarlarga xalqning o'zi baho beradi", – deb ta'kidlaganini eslash o'rindlidir [10, 152-b.].



Fikrimizga ko'ra, ijro etuvchi hokimiyat organlari faoliyatini baholash mezonlarini tanlashda samarali davlat boshqaruvi nazariyasi va amaliyoti talablarini ham e'tibordan chetda qoldirmaslik lozim.

Samarali davlat boshqaruvining nazariy asoslari borasida ilmiy tadqiqotlar olib borgan V. I. Yakunin va S. S. Sulakshinlarning fikriga ko'ra, "davlat boshqaruvi samaradorligining asosiy mezoni bu – boshqaruv faoliyati natijasi bo'lgan qarorlardir. Ularning ta'kidlashicha davlat boshqaruvi samaradorligi avvalambor oshkoraliq, ommaviylik mezoniga qaratilgan. Shu sababli, samaradorlik deganda davlat boshqaruvi doirasida ommaviy ravishda e'lon qilingan maqsad va qadriyatlarni amalga oshirish tushuniladi" [11].

Ijro etuvchi hokimiyat organlari faoliyati samaradorligini baholash mezonlarini belgilashda samarali davlat boshqaruvi talablariga asoslanish tanlangan mezonlarning maqsadga muvofiqlik talabiga javob berishini ta'minlaydi. To'g'ri tanlangan va asoslantirilgan mezonlar ijro etuvchi hokimiyat organlari faoliyatini har tomonlama baholash va qiyosiy tahlil qilish imkonini beradi. Baholash mezonlarni tanlashda asosiy e'tibor albatta tegishli qonunchilik normalari bilan ularga yuklatilgan vazifalarga qaratiladi. Shuningdek, barcha darajadagi ijro etuvchi hokimiyat organlari faoliyatini baholash uchun umumiy bo'lgan mezonlar ham bo'lishi mumkin.

Misol uchun, baholanayotgan organda korrupsiya holati, ushbu organ faoliyatidan foydalanuvchilarning qoniqish darajasi, xodimlarning xorijiy tillarni bilish darajasi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. M. Mirziyoyev 2021-yil 19-maydagি nutqida "Keyingi yildan davlat idoralariga ishga qabul qilish va yangi lavozimga tayinlashda xorijiy tilni bilish majburiy bo'ladi", – deb ta'kidladi [12].

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Davlat xizmatchilarining chet tilini bilish darajasi bo'yicha baholash ularining til bilish darajasini yanada yaxshilashga, yangi bilimlarni o'zlashtirishiga hamda xorijiy hamkorlar bilan ishlash samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Shuningdek, Prezident Sh. M. Mirziyoyev o'z nutqida "har bir vazirlik, idora, davlat kompaniyalari va yirik xususiy korxonalarda chet tillarini o'rganishni ommalashtirishimiz zarur. Bunda haftaning bir kuni xorijiy tillarni o'zlashtirish va o'rganish kuni etib belgilanadi. Buning uchun, vazirlik va idoralar, hokimliklar oliyoh va xususiy ta'lim tashkilotlari mutaxassislarini shartnomaga asosida jalb qilib, xodimlarga chet tilini o'rgatishni va xorijiy tillarda ishlashni yo'lga qo'yadi", – deb ta'kidladi [13].

Shuningdek, "Yoshlarni qo'llab-quvvatlash va aholi salomatligini mustahkamlash yili"da amalga oshirishga oid Davlat dasturining 227-bandida Chet tillarini o'qitish tizimini takomillashtirish belgilangan. Unga ko'ra:

- chet tillaridan bakalavriat yo'nalishidagi kadrlarni tayyorlash tizimini takomillashtirish;
- chet tillaridan tan olingan xalqaro sertifikatlarning ro'yxatini qayta ko'rib chiqish;
- bosqichma-bosqich chet tili (ingliz, fransuz, nemis, rus) fanlaridan maktab dasturlarini qayta ko'rib chiqish va zamonaviy darsliklarni yaratish;
- xorijdan ingliz va rus tili o'qituvchilarini jalb qilish nazarda tutiladi", – deb belgilangan [14].

Ma'lumki, davlat boshqaruvi hamda davlat xizmatlari sifati va samaradorligini ta'minlashda xorijiy tillarni yaxshi o'zlashtirgan kadrlar muhim hisoblanadi. Davlat xizmatchilari faoliyatini baholash mezonlari ro'yxatiga xorijiy tilni bilish darjasini ham kiritish maqsadga muvofiq bo'ladi. Bu davlat xizmatchilarining til o'rganishga intilishlariga, chet tillarini o'rganishni tezlashtirishga, davlat xizmatchilari o'rtasida xorijiy tillarni bilish darjasining ortishiga hamda islohotlardan ko'zlangan maqsadlarga erishish jarayonlarini tezlashtirishga xizmat qiladi.

Shuningdek, ijro etuvchi hokimiyati organlari foliyatini baholash mezonlarni tanlashda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi 2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-sonli Farmonida [15] "barcha darajadagi rahbarlar mahallaga tushib, o'z yo'nalishi bo'yicha muammolarni o'rganishi va ularga yechim topishi joriy etilib, mahalladagi ishlarning holati vazirlik, idora va hokimliklar faoliyatini baholashning bosh mezoni sifatida belgilanishi nazarda tutilganini ham e'tibordan chetda qoldirmaslik lozim.

Umuman olganda baholash mezonlari baholash jarayonlarining asosiy va muhim, tarkibiy qismi hisoblanadi. Baholash mezonlarini to'g'ri va aniq belgilab olish baholash tizimidan ko'zlangan maqsadga erishishda asosiy vazifa hisoblanadi. Ijro etuvchi hokimiyat organlari ko'p va ularning faoliyati serqirra ekanligi ularning faoliyatini baholash ko'plab mezonlarni talab qilishini anglatadi. Shuningdek, baholash mezonlarini aniq tanlash ularning funksional vazifalari chegaralarini aniq belgilab qo'yilishini ham talab qiladi.

Hozirgi amaliyotda ijro etuvchi hokimiyat organlari faoliyatini baholashda maxsus yoki qo'shimcha mezonlar kabi tushunchalar ham mavjud. Maxsus yoki qo'shimcha mezonlar ham baholanayotgan davlat organining vazifalari va funksiyalari talablariga muvofiq va albatta huquqiy hujjat bilan tasdiqlanishi shart.

Ijro etuvchi hokimiyat organlari faoliyati samaradorligini baholash mezonlarini ishlab chiqish jarayonlarida ular o'rtasida takrorlanuvchi funksiyalarni aniqlash va ularni optimallashtirish, tegishli normativ-huquqiy hujjat-larga qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritish orqali ularni takomillashtirish lozim bo'ladi.



Shuningdek, takrorlanuvchi funksiyalar hamda ayrim samarasiz ish o'rinlarini qisqartirish, mavjudlariga aniq vazifalar qo'yish, maqsadsiz va samarasiz xarajatlarni qisqartirish, ish haqi uchun davlat byudjetidan ajratiladigan mablag'larni aniq maqsadga yo'lantirish imkoniyatini yanada yaxshilashga amaliy zamin yaratadi. Bu esa o'z navbatida boshqaruvi tizimini takomillashtirish hamda mamlakatda olib borilayotgan ma'muriy isloholardan ko'zlangan maqsadning asosini tashkil etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 3-fevraldag'i "Yoshlarni qo'llab-quvvatlash va aholi salomatligini mustahkamlash yili"da amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risida"gi PF-6155-sonli Farmoniga muvofiq "2021-yil yakuniga qadar davlat boshqaruvi xodimlari sonini o'ttacha 15 foizgacha optimallashtirish hamda davlat organlarining takroriy funksiyalarini qisqartirish;

- boshqaruva bir-birini takrorlaydigan idoralar, funksiyalar va byurokratik to'siqlarni va majlisbozlikni qisqartirish;
- ko'p yillar davomida bo'sh turgan shtat birliklarini optimallashtirish;
- ayrim davlat funksiyalarini xususiy sektorga o'tkazish hamda litsenziya va ruxsat etish xususiyatiga ega hujjatlarni qisqartirish va ularni berish jarayonini avtomatashtirish hisobiga ish jarayonlarini qayta ko'rib chiqish;
- vazirlik va idoralar faoliyatida qaror qabul qilish jarayonlarini soddalashtirish kabi vazifalar belgilangan<sup>[16]</sup>.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 21-dekabrdagi "Yangi O'zbekiston ma'muriy islohotlarini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmonida 2023-yil 1-yanvardan O'zbekistonda hukumatga bo'ysunuvchi mustaqil ijro etuvchi hokimiyat organlari soni 61 tadan 28 tagacha, vazirliklar soni 25 tadan 21 taga qisqartirilishi va 20 ta idora to'liq tugatilishi nazarda tutilgan<sup>[17]</sup>.

Shu sohada ilmiy tadqiqotlar olib borgan D. Anvarovaning yozishicha "Davlat boshqaruvi organlaridan 85 tasi (25 ta vazirlik, 16 ta qo'mita, 14 ta inspeksiya, 31 ta agentlik)ning nizomlari o'rganilganda davlat organi faoliyatini baholash bo'yicha umumiy normalar – 52 ta, davlat organlari xodimlarining faoliyatini baholash bo'yicha umumiy normalar – 8 tadan iborat bo'lib, baholash bo'yicha mezonlar 2 ta davlat tashkilotida, xodimlarning baholash bo'yicha mezonlar esa 23 ta davlat organlarida tasdiqlangan. Tadqiqotching yozishicha "Adliya vazirligi tomonidan 2020-yilda o'tkazilan o'rganishlarga ko'ra, Qurilish vazirligining 68 ta funksiyasidan 3 tasi, Transport vazirligining – 63 tadan 3 tasi, Iste'molchilar huquqlarini himoya qilish agentligining – 66 tadan 9 tasi, Davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish agentligining – 40 tadan 8 tasi, Farmatsevtika tarmog'ini rivojlantirish agentligining – 37 tadan 8 tasi, Kapital bozorini rivojlantirish agentligining – 53 tadan 7 ta funksiyasi amalga oshirilmay kelinayotgani aniqlangan.

Moliya vazirligi ma'lumotiga ko'ra, 2022-yildan barcha vazirlik va idoralarga ajratiladigan byudjet mablag'larning maqsadli indikatorlari belgilanadi va dasturiy byudjetlashtirish tizimi joriy etiladi. 2022-yildan ishga tushirish belgilangan mazkur tizim orqali davlat byudjeti ijrosini rejalashtirish, bajarish va nazorat qilish mumkin bo'ladi. Ma'lum qilinishicha ajratilgan mablag'larni natijasini baholovchi mezonlarga asoslangan yangi tizim Xalq ta'limi, Sog'liqni saqlash, Suv xo'jaligi vazirliklari va Avtomobil yo'llari qo'mitasida sinovdan o'tkazilgan<sup>[18]</sup>.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 19-maydag'i "Davlat huquqiy siyosatini amalga oshirishda adliya organlari va muassasalari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5997-sonli Farmoniga muvofiq Adliya vazirligiga davlat organlari faoliyatini baholash jarayonlarini tahlil qilib borish bilan bog'liq bo'lgan bir qator vazifalar yuklatilgan.

Xususan, "vazirlik amalga oshirilayotgan ma'muriy islohotlarning samaradorligi va natijadorligini monitoring qilish, ushbu sohada vazirlik va idoralar vakolati va funksiyalarining to'liq va sifatli amalga oshirilayotganligi hamda belgilangan maqsadlarga erishilayotganligini funksional tahlil qilish bo'yicha vakolatli organ deb hisoblanadi.

Shuningdek, vazirlik va idoralar, shu jumladan ular tarkibidagi alohida tashkilotlarning (agentliklar, inspeksiyalar, markazlar va boshqalar) vazifa va funksiyalari amalga oshirilishining samaradorligi ko'rsatkichlarini (indikatorlarini) baholaydi va natijasi bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Rayosati malijsida muhokama qilish uchun umumlashtirilgan hisobot, shuningdek, samaradorlik ko'rsatkichlariga (indikatorlarga) erishmagan davlat organlari mansabdor shaxslariga nisbatan tegishli javobgarlik choralarini qo'llash bo'yicha taklif kiritadi", – deb belgilab qo'yilgan<sup>[19]</sup>.

Baholashga oid normativ-huquqiy hujjatlar tahlil qilinganda davlat boshqaruvi organlari, xususan, ijro etuvchi hokimiyat organlari faoliyati samaradorligini baholash mezonlari turli xil subyektlar tomonidan tasdiqlanishi belgilangan.

Misol uchun, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 31-iyuldag'i 603-sonli qarori bilan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasi Qurilish vazirligi to'g'risida nizom"ning 60-bandida "Vazirlik faoliyatining samaradorligi va natijadorligini baholash O'zbekiston Respublikasi Bosh vazirining birinchi o'rinnbosari tomonidan tasdiqlanadigan Vazirlik faoliyatining samaradorligi va natijadorligini baholash mezonlari va ish indikatorlariga asoslanadi", – deb belgilagan<sup>[20]</sup>.



Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 19-fevraldagji 146-sonli qarori bilan tasdiqlangan “O’zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi to’g’risidagi nizom”ning 57-bandida “Vazirlikning faoliyati samaradorligi va natijadorligiga berilgan baholar O’zbekiston Respublikasi Bosh vazirining tegishli o’rinbosari tomonidan tasdiqlanadigan Vazirlikning faoliyati samaradorligi va natijadorligini baholash mezonlari va ish indikatorlariga asoslanadi”, – deb belgilangan [21].

Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 27-iyundagi 532-sonli qarori bilan tasdiqlangan “O’zbekiston Respublikasi Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish davlat qo’mitasi to’g’risidagi nizom”ning 77-bandida “Qo’mita faoliyatining samaradorligi va natijadorligini baholash Qo’mita raisi tomonidan tasdiqlanadigan Qo’mita faoliyatining samaradorligi va natijadorligini baholash mezonlari va ishchi indikatorlariga asoslanadi”, – deb belgilangan [22].

Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 31-dekabrdagi 1060-sonli Qarori 2-ilovasida “O’zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Sug’urta bozorini rivojlantirish agentligi to’g’risida nizom”ning 22-bandida “Agentlik faoliyati samaradorligi va natijadorligini baholash Moliya vazirligi tomonidan tasdiqlanadigan Agentlik faoliyati samaradorligi va natijadorligini baholash mezonlari va ish indikatorlariga asoslanadi”, – deb belgilagan [23].

Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 19-maydagji 295-sonli qarori bilan tasdiqlangan “O’zbekiston Respublikasi Transport vazirligi huzuridagi Avtomobil yo’llari qo’mitasi to’g’risidagi nizom”ning 29-bandida esa, “Qo’mita faoliyati samaradorligi va natijadorligini baholash Transport vazirligi tomonidan tasdiqlanadigan Qo’mita faoliyati samaradorligi va natijadorligini baholash mezonlari va ish indikatorlariga asoslanadi”, – deb belgilangan [24].

## TAHLIL VA NATIJALAR

Fikrimiziga ko’ra, ijro etuvchi hokimiyat organlari faoliyati samaradorligini baholash mezonlarining turli subyektlar tomonidan ishlab chiqilishi ham mantiqiy, ham huquqiy jihatdan to’g’ri bo’lmaydi. Bu turli subyektivliklarni kelib chiqishiga sabab bo’lishi mumkin.

Shuningdek, ijro organlari va davlat xizmatchilarini faoliyatni baholash murakkab jarayon ekanligi hisobga olinganda bu yana ham qo’shimcha murakkabliklarga sabab bo’lishi mumkin.

## XULOSA

Xulosa o’rnida ta’kidlash joizki, ijro etuvchi hokimiyat organlari faoliyatini baholash mezonlarini aniq belgilab olish murakkab, ammo mezonlarni aniq belgilash ijro etuvchi hokimiyat organlari faoliyatining miqdor va sifat ko’rsatkichlaridagi mutanosibliklarni ta’minalashga xizmat qiladi. Samaradorlikni baholash mezonlari ijro etuvchi hokimiyat organlari faoliyatining barcha sohalarini qamrab olishi, ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni kuzatib borishni to’liq o’z ichiga olishi kerak. Shuningdek, miqdoriy, statistik ko’rsatkichlardan tashqari, belgilangan vazifalarni sifatli bajarishga ham alohida e’tibor qaratish lozim.

Ijro etuvchi hokimiyat organlari faoliyati samaradorligini baholash mezonlarini belgilash jarayonida quyidagilarga e’tibor qaratish lozim.

- ijro etuvchi hokimiyat organlari faoliyatini baholash mezonlarini tanlashda ularga normativ-huquqiy hujjalarda belgilab qo’ylgan vazifa va funksiyalarga qaratish;
- tashabbus bilan kiritilgan baholash mezonlarining ahamiyati va taalluqliligiga e’tibor qaratish;
- ijro etuvchi hokimiyat organlari faoliyati samaradorligini baholashda asosiy e’tiborni barqaror iqtisodiy o’sish, har tomonlama rivojanish hamda aholining hayot sifati yaxshilanib borishiga qaratish;
- ijro etuvchi hokimiyat organlari faoliyati samaradorligini baholash natijalariga asoslangan holda ularga yuklatilgan davlat funksiyalarini qayta ko’rib chiqish, ular o’tasida vakolat va vazifalarni taqsimlash bo’yicha tegishli qarorlar qabul qilish;
- baholash jarayonlarida har bir ijro etuvchi hokimiyat organi hamda hududlarning o’ziga xos xususiyatlarini inobatga olish lozim.

Ijro etuvchi hokimiyat organlari faoliyatini baholashda quyidagi mezonlarni kiritish taklif etiladi.

- ijro etuvchi hokimiyat organlari tomonidan taqdim etilayotgan xizmatlar sifatining aholi tomonidan mustaqil baholash natijalari;
- ijro etuvchi hokimiyat organlari tomonidan hujjatlarni qabul qilish tezligi va sifati;
- ijro etuvchi hokimiyat organlari tomonidan fuqarolarning murojaatlarini ko’rib chiqish tezligi va sifati;
- ijro etuvchi hokimiyat organlari tomonidan ko’rsatilayotgan xizmatlar sifati va tezligi;
- aholining ta’lim sifatidan qoniqish darajasi;
- aholining sog’liqni saqlash, tibbiy yordam ko’rsatish sifatidan qoniqish darajasi;
- aholining jismoniy tarbiya va sport bilan shug’ullanish uchun yaratiligan shaoritdan qoniqish darajasi.



- aholining uy-joy kommunal xizmatlari ko'rsatilishidan qoniqish darajasi.
- aholining toza ichimlik suvi ta'minotidan qoniqish darajasi.
- aholining tabbiy gaz (metan, propan) yetkazib berish holatidan qoniqish darajasi.
- aholining avtomobil yo'llarining holatidan qoniqish darajasi.
- aholining elektr enegiyasi ta'minotidan qoniqish darajasi.
- baholanayotgan organda korrupsiya darajasi.
- davlat xizmatchilarining chet tillarini bilish darajasi.
- yaratilgan ish o'rinnari soni.
- kichik va o'rta biznes sohasidagi xodimlar, shu jumladan yakka tartibdagi tadbirkorlar soni.
- o'ttacha oylik ish haqining o'sib borish darajasi.
- asosiy kapitalda investitsiyalar hajmi.
- kambag'allik darajasi.
- umr ko'rish davomiyligi.
- yashash sharoitlari yaxshilangan oilalar soni.
- qulay shahar muhitiga ega shaharlar ulushi.
- uy sharoitlari yaxshilangan oilalar ulushi.
- ishsizlik darajasi.
- aholi real daromadlarining o'sib borishi kabi mezonlar kiritilishi lozim.

Faoliyat samaradorligi baholash mezonlarining soni maqbul, maqsadga muvofiq, shuningdek, yakuniy baholashda har bir mezon va ko'rsatkichning o'ziga xos jihatni va vazifasi aniq bo'lishi kerak.

Ushbu tavsiyalar ijro etuvchi hokimiyyat organlari va ularning rahbarlari faoliyatini samarali monitoring qilishga, ularning faoliyatini xolisona va adolatli baholashga, mavjud muammolarni o'z vaqtida aniqlashga hamda samarali boshqaruv qarorlarini qabul qilishga amaliy zamin yaratadi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. <https://dictionary.sambridge.org/ru>
2. Ушаков Д.Н. Толковый словарь русского языка. 2012.
3. <https://www.dictionary.com/browse/sriteria>.
4. Лёхина И. В. Словарь иностранных слов. – М.: Русский язык. 1985. – С. 262.
5. Ачкасов А. В. Критерии эффективности государственного управления как механизм коммуникации власти и общества. // Коммуникология. Том5 №2. Москва, 2017. – С. 209-219.
6. <http://systems-analysis.ru/sriterion.html>.
7. Барциц И. Н. Показатели и критерии оценки эффективности государственного управления. – М.: 2010. – С.8.
8. Савруков А. Н., Савруков Н.Т. Методический подход и критерии оценки эффективности государственного управления в регионах. Российский экономический университет им. Г.В. Плеханова, – М.: 2017
9. Ачкасов А. В. Критерии эффективности государственного управления как механизм коммуникации власти и общества. // Коммуникология. Том5 №2. Москва, 2017. – С. 209-219.
10. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'llimizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. – T.: O'zbekiston, 2017. – 152-b.
11. Якунин В. И., Сулакшин С.С. Теоретические аспекты проблемы эффективности государственного управления // Власть. 2008. №6
12. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining rasmiy veb-sayti. <https://president.uz/>
13. <https://president.uz>.
14. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 04.02.2021-y., 06/21/6155/0082-son. <https://lex.uz/doss/5260791>
15. Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 29.01.2022-y., 06/22/60/0082-son, 18.03.2022 y., 06/22/89/0227-son. <https://lex.uz/uz/doss/5841063>
16. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 04.02.2021-y., 06/21/6155/0082-son. // <https://lex.uz/doss/5260791>
17. <https://www.gazeta.uz/uz/2022/12/24/new-ministries>.
18. Anvarova D. Davlat boshqaruvini baholash yoxud byudjet mablag'lari qanday tejaladi. // <https://huquqburch.uz/>
19. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 20.05.2020-y., 06/20/5997/0634-son; Qonunchilik ma'lumotlari milliy baza-si, 30.04.2021-y., 06/21/6218/0398-son. <https://lex.uz/doss/4820060>.
20. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 01.08.2018-y., 09/18/603/1602-son. <https://lex.uz/doss/3843065>.
21. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 20.02.2019-y., 09/19/146/2637-son. <https://lex.uz/doss/4207473>.
22. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 28.06.2019-y., 09/19/532/3344-son. <https://lex.uz/doss/4390399>.
23. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 31.12.2019-y., 09/20/1060/0021. <https://lex.uz/doss/4677911>.
24. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 20.05.2020-y., 09/20/295/0624-son. <https://lex.uz/doss/4818723>.

# Yashil IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Xondamir Ismoilov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

---

**2023. № 6**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

E-mail: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot\_77

Telefon: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lisingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot\_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

«Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot» jurnali 03.11.2022-yildan  
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi  
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan  
№566955 reestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.  
**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027



**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani  
Kumushkon ko'chasi 26-uy.